



INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINI XALQARO VA MILLIY DARAJADA TA'MINLASH

Najmutdinova Mehrangiz Fayoz qizi

O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti
Toshkent viloyati, Zangiota tumani

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-October 2023 yil

Ma'qullandi: 28-October 2023 yil

Nashr qilindi: 31-October 2023 yil

KEY WORDS

Konstitutsiya, pakt, qonun, BMT, deklaratsiya, ombudsman, kodeks, huquq, erkinlik, himoya, shaxsiy huquq, ijtimoiy huquq, iqtisodiy huquq, siyosiy huquq, pozitiv huquq, negative huquq, ratifikatsiya, implementatsiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada, jamiyatda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning xalqaro va milliy darajasi, shuningdek uning huquqiy asoslari bayon etilgan.

Inson huquqlari - bu juda keng tushuncha. Insonning ayrim huquqlari tabiiy huquq sifatida uning tug'ilganidan boshlab amal qiladi. Inson tug'ilgach avallo, yashash huquqiga ega bo'ladi. Keyinchalik esa boshqa huquqlar ham shakllanib boraveradi. Ba'zi huquqlar insonlarning yoshiga, hattoki huquqiy maqomiga ham bog'liq. Masalan, siyosiy huquqlar. Bu huquqlar faqat fuqaroligi bor bo'lgan shaxslardagina mavjud. Chunki, fuqarolar davlatning siyosiy hayotida bevosita yoki bilvosita tarzda ishtirok etadi.

Bundan tashqari, deyarli 80% huquqlarimizga belgilangan yoshga yetganimizdagina ega bo'lamiz. Bu huquqlarga misol qilib, saylov huquqimizni, shartnoma tuzish, mehnat qilish, nikoh qurish va boshqa huquqimizni olishimiz mumkin.

Bilamizki, insonda ikki xil huquq mavjud. Bulardan birinchisi pazitiv, ikkinchisi esa negativ huquqlardir. Pazitiv huquq – insonning tug'ilishidan boshlab amal qilishni boshlaydi. Masalan, yashash huquqi. Negativ huquqda aynan, inson o'z huquqini davlatning ishtirokisiz amalga oshira olamaydi. Masalan, mehnat qilish, ko'chish va h.k.

Bugungi kunda inson sha'ni va qadr-qimmatini eng oliy qadriyatdir. Bu haqida Konstitutsiyamizning 13-moddasida ham bayon etilgan. Inson huquqlariga bo'lgan e'tiborni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Konstitutsiyada "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" ga bag'shlangan alohida bo'lim mavjud. Ushbu bo'limning tegishli boblarida inson va fuqarolarning turli xildagi huquq va erkinliklari belgilangan (O'zb.Res.Kons 2-bo'lim 6-11-boblar). Konstitutsiyamizning muqaddimasida ham "O'zbekiston xalqi inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib",- degan jumla mavjud. Bu ham O'zbekistonda inson huquqlarini tashkil etuvchi va uni himoya qiluvchi asos mustahkam ekanligidan dalolatdir.

Bilamizki, inson huquqlariga bo'lgan e'tibor 2-jahon urushidan keyin avj oldi. Ya'ni 1945-yil 24-oktabrda tashkil etilgan BMT, buning asosiy turtkisi bo'ldi. BMT tomonidan 1948-

yil 10-dekabrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilindi. 30 ta moddadan iborat bo'lgan IHUD da inson va fuqarolarning barcha huquq va erkinliklari o'z tasdig'ini topdi. O'zbekiston ham mazkur deklaratsiyani ratifikatsiya qilib, o'zining milliy qonunchiligida implementatsiya ko'rinishida mustahkamladi. IHUD qabul qilingandan so'ng, 1950-yildan boshlab 10-dekabr xalqaro "Inson huquqlari kuni" etib belgilandi.

Inson huquqlari bo'yicha bugungi kunda juda ko'plab konvensiya, deklaratsiya, xalqaro paktlar hamda qonunlar yaratilgan. Bularga misol qilib: "Erkinliklarning buyuk xartiyasi" (1215), "Majburiy mehnatning taqiqlanishi to'g'risida" gi konvensiya (1930), "Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risida" gi konvensiya (1952), "Turmushga chiqqan ayolning fuqaroligi to'g'risida" gi konvensiya (1957), "Hududiy boshpana berish to'g'risida" gi deklaratsiya (1957), "Majburiy mehnatni batamom bekor qilish to'g'risida" gi konvensiya (1957), "Bolalar huquqlari to'g'risida" gi deklaratsiya (1959), "Irtiqiy kamsitishlarning barcha shaklini bekor qilish to'g'risida" gi konvensiya (1965), "Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar to'g'risida" gi xalqaro pakt (1966), "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida" gi xalqaro pakt (1966), "Bolalar huquqlari to'g'risida" gi konvensiya va boshqalarni misol qilishimiz mumkin.

Tarixga nazar, bilamizki uzoq o'tmishda inson huquqlari ahamiyatsiz tushuncha bo'lgan. Ya'ni, quldorlik davrlarida insonlarni pul evaziga qul qilib sotishgan, ularga buyum sifatida qarashgan. Jamiyat ikki tabaqaga: zodagonlar va quldorlarga bo'lingan. Qiz bolalarni tiriklayin ko'mishgan, ularga inson nazari bilan qarashmagan. Ammo, miloddan avvalgi xamurappi qonunlarida inson huquqlarining buzilishiga va uning uchun jazoning mavjudligiga oid qonunlar mavjud edi. Masalan, shifokor o'z o'quvsizligi bilan bir bemorning o'limiga sababchi bo'lsa, u holda uning qo'llari kesib tashlangan.

Barchamizga ma'lum, inson huquqlari cheklanishi mumkin. Inson huquqlarini cheklashga faqatgina sud haqli. Qachonki, inson huquqqa xilof xatti-harakatni amalga oshirsa. Mamlakatimizda o'lim jazosi 2008-yildan boshlab bekor qilinganligi ham davlatimizdagi insonning yashash huquqi borasidagi tizimning tobora liberallashtirilayotganligidan dalolat beradi. Hozirgi kunda, inson huquqlariga e'tibor shu darajada kuchaydiki, buni isboti o'laroq, O'zbekistonda 1995- yil "Ombudsman" lavozimi joriy etildi. 1996-yilda esa inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz o'z faoliyatini boshladi.

Xorijiy tajriba. Dastlab ombudsman lavozimi Shvetsiya qirolligida 1709-yilda joriy etilgan. Ombudsman lavozimi bugungi kunda turli mamalakatlarda turlicha ataladi. Ba'zi davlatlarda advokat, ba'zilarida esa vositachi yana boshqalarida esa huquq himoyachisi deyiladi. O'zbekistonda ombudsmanga bevosita murojaat qilish huquqimiz mavjud. Ammo ayrim davlatlarda esa aksincha. Masalan, Fransiya davlatida ombudsman vositachi deyiladi va unga bilvosita murojaat etiladi.

Muammoli vaziyat. Xalqaro va milliy darajada inson huquqlari va erkinliklarini albatta kafolatlaymiz, ammo insonning erkinligiga qarshi bo'lgan xavfli jinoyatlar sodir etilishini oldini ololmaymiz yoki shunday jinoyat sodir etgan shaxslarni qilgan jinoyatiga yarasha jazolamaymiz. Ya'ni men nima demoqchiman. Jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ta'sir choralarini va jazoni sal kuchaytirish lozim. Chunki jinoyat dunyosiga kirgan inson qilgan jinoyati uchun jazo o'tayotganini his qila olishi va bu narsani ikkinchi marta takrorlamasligi kerak. Davlatda jazo tizimi kuchli bo'lsa, jinoyatlar soni kam bo'ladi. Inson huquqlari buzilishi holatlari ham kamayadi. Insonlar jinoyat sodir etishga qo'rqadi. Eng

avvalo, insonlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni kuchaytirish lozim. Ularga huquq darsliklarini kerak bo'lsa, maktabning 5-sinfidan kiritish lozim. Bolalar ongi shakllanayotganda, ularga oq-u qorani, jinoyat va jazoni nima ekanligini tushuntirish lozim. Zero, yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqsh bilan barobar.

Xulosa qilib aytganda, bugun insonlar yashashi, bilim olishi, o'z ehtiyojlarini qondirishi uchun barcha sharoitlar mavjud. Konstitutsiyada yozilganidek, davlat-inson va fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va burchlarini kafolatlaydi (O'zb.Res.Kons 43-modda). Konstitutsiyamizning 2-bo'limi 10-bobida huquqlarimizning kafolatlari bayon etilgan. O'zbekiston bugungi kunda dunyoning barcha davlatlari bilan inson huquqlarini ta'minlash borasida kurasha oladi. Chunki, asosiy qomusimiz konstitutsiyada ham bu gaplar o'z tasdig'ini topgan. Bugungi kunda insonlarning murojaat qilish huquqini ta'minlash maqsadida, hattoki konstitutsiyaviy sudga ham konstitutsiyaviy masalar bo'yicha fuqarolarga, o'zining buzilgan huquqlari bo'yicha murojaat qilish imkoni berildi. Buyog'iga endi inson huquqlariga e'tibor kuchaysa kuchayadiki, lekin kamaymaydi. Zero, Yangi O'zbekistonda el aziz – inson aziz!

Adabiyotlar:

1. Najmutdinova M., Narkulova I. R. Q. O'zbekiston Respublikasi suverenligining huquqiy asosi //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 3. – С. 895-899.
2. Наркулова И. Р. К. Реализация межпредметных связей через бинарные занятия (на примере дисциплин «Русский язык» и «Гражданское право») //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 932-935.
3. Ёкубова И. Р. Формирование профессиональной компетентности тюркоязычных студентов при обучении русскому языку как иностранному (на примере авторской интерактивной программы «Русский язык для военных юристов») //II Международный конгресс «Языковая политика стран Содружества Независимых Государств (СНГ)». – 2021. – С. 207-209.
4. Narkulova I. R. Verbs of perception in Russian and the ways of their teaching to cadets of higher military educational institutions //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2022. – Т. 2. – №. 8.
5. Наркулов, А. К. угли . (2023). ЗНАЧИМОСТЬ ПАТРУЛИРОВАНИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА. Innovative development in educational activities, 2(20), 239–243. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10055339>
6. Наркулова И. Р. К. СВОЙСТВА ГЛАГОЛОВ АКТИВНОГО ВОСПРИЯТИЯ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 28. – С. 421-423.
7. Muratovich M. R., Rajaboevich I. A. HARBIY XIZMATCHILARNING KASBIY ONGINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA UZLUKSIZ JARAYON SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – Т. 36. – №. 1. – С. 32-34.
8. Махмудов Р. М. ҚУРОЛЛИ КУЧЛАР ТИЗИМИДА МУРАББИЙ-ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИ АЁЛЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШДАГИ МЕТОДИК ИШЛАРИНИНГ ЎЗИГА ҲОСЛИГИ //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – Т. 30. – №. 1. – С. 119-122.
9. Наркулова И. Р. ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КУРСАНТОВ-БИЛНГВОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ

ТЕХНОЛОГИЙ //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 185-193.

10. НАРКУЛОВА И. THE USE OF COMPUTER LINGUODIDACTICS IN THE PROCESS OF TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE //Social sciences.

8. Narkulova I. R. PROJECT TECHNOLOGY AS A MEANS OF DEVELOPING THE INDIVIDUALITY OF CADETS //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2023. – Т. 3. – №. 1.

9. Наркулова И. Р. СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ВАРЬИРОВАНИЕ ЗАИМСТВОВАНИЙ (НА МАТЕРИАЛЕ СЛОВАРЯ СИ ОЖЕГОВА) //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 7-9.

10. Махмудов Р. М., Ибрахимов А. Р. ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИ ВА ОФИЦЕРЛАРНИ БОШҚАРУВ ФАОЛИЯТИНИНГ МАЗМУНИ ВА МОҲИЯТИ //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 19. – №. 1. – С. 143-146.

11. Махмудов Р. М., Хайдаров И. О. АХБОРОТ-ПСИХОЛОГИК ХАВФСИЗЛИКНИНГ ШАХСГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ВОСИТА ВА УСУЛЛАРИ //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – Т. 28. – №. 1. – С. 30-33.

12. МАХМУДОВ Р. М., ЎҒЛИ Э. А. А. ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИЛАРНИНГ ПРОФЕССИОНАЛ БЎЛИБ ШАКЛЛАНИШИГА КАСБИЙ БУЗИЛИШНИНГ САЛБИЙ ТАЪСИРИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 13. – №. 1. – С. 18-24.

13. Наркулова И. Р. К. Профессионально-ориентированное обучение русскому языку курсантов юридического профиля на основе интерактивной программы //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 1348-1352.

14. Закирова А. О., Наркулова И. Р. Қ. Роль русского языка в работе сотрудников органов внутренних дел //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 1. – С. 737-740.

15. Наркулов А. К. У. Роль правоохранительных органов и общественных организаций в сфере обеспечения общественного порядка (на примере США) //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 1615-1620.

16. Narkulova, I. R. qizi . (2023). THE METHODOLOGY OF USING SONGS IN TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE IN HIGHER MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS. Innovative Development in Educational Activities, 2(20), 222-232. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10055312>